

“TASVIRIY SAN’AT JANRLARI”

Paxriddinova Dilshoda Farhod qizi.

Chirchiq davlat pedagogika insitituti 2-bosqich talabasi

Ahmatqulova Nigora Adham qizi.

Chirchiq davlat pedagogika insitituti 2-bosqich talabasi

Tel: 94 4166846 PaxriddinovaDilshoda@gmail.com

Annotatsiya:

Siz ushbu maqolada tasviriy san’at, uning jozibadorligi va uning janrlari, kelib chiqishi, qo’llanilishi, turlari Tasviriy san’at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubi kabi ma’lumotlarga ega bo’lishingiz mumkin.

Kalit so’zlar:

Janrlar, grafika, obraz, avtoportret, natyurmort, botal janr, animalistic.

Tasviriy san’at asarlari mavzusi, mazmuni, ishlanish uslubiga ko’ra turli janrlarga bo’linadi.

Tasviriy san’at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san’at turi; voqelikni uning osongina ilg’ab olinadigan fazoviy shakllarda ko’rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviriy san’at turlari o’z xususiyatlariga qarab real borliqni ob’yektiv mavjud sifatlari — hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti, harakat va o’zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan illyuzionizmga. o’tish mumkin. Tasviriy san’at faqat ko’rish mumkin bo’lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi (fabula), erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g’oyaviy o’zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tasviriy san’at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san’ati tushuniladi.

Grafika. Hozirgi zamon san’atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san’atidir. Tasviriy san’atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san’ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo’lmay, ko’p hollarda qog’ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya’ni voqeani bir necha qog’ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o’zaro bir-biri bilan bog’liq bo’lib, ma’lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san’ati hozirjavob san’atidir.

Rangtasvir. Tasviriy san’atning ikkinchi bir turi rangtasvir san’atidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san’at turiga kiradi. Rangtasvirda rang muhim o’rinni egallaydi. Agar grafika san’atida rang shunchaki yordamchi vazifani o’tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko’rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyligini, hajmini ko’rsatadi. Rangtasvir asarlari yana o’zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko’ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo’linadi. Monumental rangtasvir me’morlik bilan chambarchas bog’liq bo’lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Dekorativ rangtasvir me’morchilik va amaliy san’at bilan bog’liq bo’lib, asosan bezash vazifasini o’taydi.

O’zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo’lgan. Hozirgi kunda u o’zbek tasviriy san’atida yetakchi o’rinlardan birini egallaydi.

Haykaltaroshlik. Tasviriy san’atning turlaridan biri bo’lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo’lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo’yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o’rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, tanga, belgi, medal kabibuyumlarning yuzasidagi bo’rtma tasvirlar haykaltaroshlik san’atining turli ko’rinishi hisoblanadi.

Tasviriy san’atning janrlariga keladigan bo’lsak, ular sakkiz xildir: portret, avtoportret, manzara, natyurmort, botal janr, animalistik, maishiy, tarixiy janr.

Portret- rangtasvir janrlari ichida eng qadimiylaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi.

Manzara- janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Bu janrdagi musavvirlardan O'. Tansiqboyevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qishlog'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z. Inog'omovning "Arpa o'rimi", "Choyga" asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Natyurmort- fransuzcha so'z bo'lib, "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. Bu janrdagi musavvir asosan insonni o'rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo'llaniladigan buyumlar, oziq – ovqat mahsulotlari, gullar, meva va boshqalarni tasvirlaydi.

Tarixiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati bilan tanishamiz.

Botal janr- "botal" fransuzcha so'z bo'lib, "jang", "urush" ma'nosini bildiradi. U jang manzaralarini o'zida aks ettiradi. Bu janrdagi jang va harbiy yurishlar manzarasi asosiy o'rinni egallaydi.

Animalistik- janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha "animas", "hayvonot olami" degan ma'noni bildiradi. Animalistik rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondashadi.

Maishiy janr- tasviriy san'atda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rang tasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomlari: Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermer kabilar ijodida namoyon bo'ladi.

Tasviriy san'at tur va janrlari ko'paydi, realistik yo'nalishdagi janrlar (portret, manzara, natyurmort, maishiy janr) yetakchi o'ringa chiqib boshladi. Uyg'onish davri Tasviriy san'atiga xos bo'lgan vazminlik, chiziq, rang, faktura mutanosibligi o'rnini jo'shqin shakl va ranglar o'yini egallab bezakdorlik xususiyatlarining ortishi kabilar kuzatiladi. Insoniyatning mehnat faoliyati, e'tiqodlari, diniy qarashlari zaminida Tasviriy san'at paydo bo'lgan va rivojlangan. O'zbekiston Tasviriy san'ati jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan hamnafas bo'lib, har bir ijodkor o'z qarash va kechinmalarini yangicha uslub va shakllarda ifoda etishga intilishi bilan xarakterlanadi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tasviriy san'at xalqning hayotini, rassomning xissiyotlarini yoritib berishga qaratilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov B. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi.-T.: "Ilm- Ziyo", 2006.
2. Ismatov Ulfat Shuhratovich, (2020). APPLICATION OF INNOVATION IN TEACHING PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
3. ziyonet.uz.